

# O'qish savodxonligi

III qism

2



UO'K 808.545(075.3)  
KBK 74.202.5ya72  
A 38

U.B.Aydarova  
O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
2-sinfi uchun darslik. III qism. / U.B. Aydarova – Toshkent:  
"Novda Edutainment", 2023. – 80 b.

**Taqrizchilar:**

**Sh.Y. Muslimova** – Toshkent shahridagi 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

**M.I. Xo'jayeva** – Toshkent shahridagi 142-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

## Shartli belgilar:



**Yodda tuting**



**Guruh bo'lib ishleng**



**Savollarga javob bering**



**Izohli lug'at**



**Diqqat bilan o'qing**



**Tinglang**



**Bu – qiziq!**



**Topshiriqni bajaring**



**Uyga vazifa**

VII bo'lim.

**Ertaklarning sehrli  
olamidani bahra olamiz!**



Rasmlar qaysi ertaklardan olingan?



Ertaklar – to'qima va uydirmaga asoslangan, sehri-sarguzasht va maishiy mazmundagi badiiy asar.

Xalq og'zaki ijodining janrlaridan biri.

Adabiy ertak.

Og'izdan og'izga o'tib kelayotgan hikoya.

Muallifi ma'lum emas.

Muallifi ma'lum bo'lgan ertaklar. Ular she'riy shaklda ham yoziladi.

O'zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq xalq ertaklari...

Aka-uka Grimmlar "Zolushka", O'tkir Hoshimov "Tomchi haqida ertak"

## Shirin uyqu

O'zbek xalq ertagi



Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. Shu odam vafot etayotganida bolalariga: “Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng”, – deb vasiyat qilibdi. Bu gapni ikkita katta o'g'li bir xil tushunibdi, kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi. Ikkita katta akasi yerga suv sepib, chorpoyani qurib, katta ko'rpani to'shab, “uyquni shirin qilish” shunday bo'ladi-da, deb yotaveribdi. Keyin ust-ustiga har xil shirin taomlarni yeb, “ovqatni shirin qilib yeyish” mana



bunaqa bo'ladi, deb yuraveribdi. U yoqqa ag'anab, bu yoqqa ag'anab, yota-yota ovqatlari ham singmay, yegan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmabdi. Oxir-oqibat, yeyishga ovqatlari qolmay, kambag'al bo'lib qolishibdi.

Kichkinasi ishlab-ishlab kelib, yegan quruq noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo'lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo'lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boravergan ekan.



1. Ota bolalariga nima deb vasiyat qilgan ekan?
2. Bu vasiyatni bolalari qanday tushunishdi?
3. Ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushunolgan ekan? Fikringizni izohlang.
4. Uyqu shirin bo'lishi mumkinmi? Nima uchun?
5. Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
6. Ertakdan chiqargan xulosangiz bilan o'rtoqlashing.



*vasiyat* – o'z yaqinlariga qoldirgan topshiriq, istak, nasihat  
*chorpoya* – ochiq havoda o'tirishga, yotishga mo'ljallangan yog'och karavot  
*davlati ziyoda* – boy, badavlat



Ertak qahramonlariga baho bering.



“Savollar gulshani” mashqi. Ertak asosida savollar tuzing. Savollaringizni o‘qib bering va do‘stlaringizning javobini eshiting.



Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Ertak mazmuniga mos maqollar toping.

## XALQ ERTAKLARI

Maishiy  
ertaklar

Sehrli  
ertaklar

Hayvonlar  
haqidagi ertaklar

### Och bo'ri

O'zbek xalq ertagi



Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bir och bo'ri bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni u don yeb yurgan bir xo'rozni ko'rib qolibdi. Bo'ri xo'rozni ushlab payiga tushibdi. Xo'roz qanotini yozib "qaq-qaq", deyman deb turgan ekan, bo'ri lip etib kelib xo'rozning qanotidan tishlab olibdi. Xo'roz qarasa, bo'ri uni mahkam ushlab turgan emish. Shunda xo'roz so'rabdi:

- Ey bo'ri, meni nima qilmoqchisan?
- Men seni yeyman, – debdi bo'ri.
- Meni shundayligimcha yesang, hecham maza qilmaysan. Agar yeydigan bo'lsang, kashnich va piyoz bilan qo'shib yegin. Shunda haqiqiy mazani his qilasan, – debdi xo'roz.

Bo'ri:

– Kashnich bilan piyozni qayerdan topaman? – debdi.

Xo'roz:

– Kashnich bilan piyozni shu yaqin oradagi qishloqdan topasan. Sen borib kelaver, men seni shu yerda poylab turaman, – debdi. Bo'ri kashnich



# Mundarija

## VII bo'lim. Ertaklarning sehrli olamidan bahra olamiz!

|          |                                    |    |
|----------|------------------------------------|----|
| 1-mavzu. | Ertaklar olami .....               | 4  |
| 2-mavzu. | Hayvonlar haqida ertaklar I .....  | 8  |
| 3-mavzu. | Hayvonlar haqida ertaklar II ..... | 13 |
| 4-mavzu. | Boyo'g'li bilan qarg'a .....       | 14 |
| 5-mavzu. | Tulkinging hiylasi ko'p... ..      | 16 |
| 6-mavzu. | Adabiy ertaklar .....              | 19 |
| 7-mavzu. | Tabiat in'omi .....                | 22 |
| 8-mavzu. | Bog'da .....                       | 25 |
| 9-mavzu. | Bo'lim yuzasidan takrorlash .....  | 28 |

## VIII bo'lim. Buyuklar xotirada mangu yashaydi!

|          |                                    |    |
|----------|------------------------------------|----|
| 1-mavzu. | Biz buyuklar avlodimiz .....       | 33 |
| 2-mavzu. | Buyuk sarkarda .....               | 35 |
| 3-mavzu. | Mirzo Ulug'bek .....               | 39 |
| 4-mavzu. | Ulug' shoir va mutafakkir .....    | 42 |
| 5-mavzu. | Adolatli shoh va buyuk shoir ..... | 45 |
| 6-mavzu. | Qatag'on qurbonlari xotirasi ..... | 47 |
| 7-mavzu. | Mehnatsiz taxt kelmas .....        | 50 |
| 8-mavzu. | Yuksak ma'naviyatli avlod .....    | 53 |
| 9-mavzu. | Bo'lim yuzasidan takrorlash .....  | 55 |

## IX bo'lim. Milliy an'ana va qadriyatlarimiz e'zozda

|          |  |    |
|----------|--|----|
| 1-mavzu. | Oila – muqaddas qo'rg'on .....             | 58 |
| 2-mavzu. | Bebaho qadriyatlar .....                   | 61 |
| 3-mavzu. | An'ana nima? .....                         | 63 |
| 4-mavzu. | Ibratli amallar va go'zal an'analar .....  | 65 |
| 5-mavzu. | Fayzli ko'chalar – mahallamiz ko'rki ..... | 67 |
| 6-mavzu. | Odob salomdan boshlanadi .....             | 70 |
| 7-mavzu. | Bayramlari ko'p yurtim .....               | 72 |
| 8-mavzu. | Navro'z taomlari .....                     | 74 |
| 9-mavzu. | Bo'lim yuzasidan takrorlash .....          | 77 |

**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

***Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.***

***Zokirjon Admin bilan***

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga***

***murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi***

***2-sinf o'qish savodxonligi III qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.***

**Telegram kanalimiz:**

**[@Maktablar\\_uchun\\_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)**



**DIQQAT!!!**

**Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.**

**Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.**

**To'liq holda olganingizdan so'ng:**

**Faqat o'zingiz uchun foydalaning.**

**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**

**Internet veb-saytlarga joylamang.**

**Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT**

**QILMANG.**